

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbiki Jalgasovna	
BREND POZITSİYALASH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна	
KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi	
GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloyevich Jurayev	
YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI.....	77
Nasulloeva Oydinoy Saidovna	
ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	82
Палвонова Севара Бахромовна	
MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna	
INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI.....	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich	
Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li	



INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI



Baymuradov Shoxrux Maxmudovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Biznes boshqaruvi kafedrası
dotsenti v.b. PhD



Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Menejment fakulteti BBA-87 guruhi talabasi
E-mail: dilmurodovkomiljon5@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson kapitalining korxonalar raqobatbardoshligini shakllantirishdagi o'rni va ta'sir mexanizmlari tadqiq etiladi. Inson kapitalining bilim, kasbiy ko'nikma, tajriba, innovatsion salohiyat va raqamli kompetensiyalari korxonalarda mehnat unumdorligi, innovatsion faollik hamda bozor ustunligini belgilovchi muhim omillar sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy iqtisodiy sharoitda inson kapitalini izchil rivojlantirishning korxonalarning barqaror raqobatbardoshligini ta'minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: inson kapitali, raqobatbardoshlik, mehnat unumdorligi, kompetensiya, innovatsiya, raqamli ko'nikmalar, korxona rivojlanishi.

Abstract. This article examines the role of human capital and the mechanisms through which it influences enterprise competitiveness. Knowledge, professional skills, experience, innovative capabilities, and digital competencies are analyzed as key factors affecting labor productivity, innovation performance, and market advantage. The study also substantiates the importance of the systematic development of human capital in ensuring the sustainable competitiveness of enterprises under contemporary economic conditions.

Keywords: human capital, competitiveness, labor productivity, competencies, innovation, digital skills, enterprise development.

Аннотация. В статье исследуются роль человеческого капитала и механизмы его влияния на формирование конкурентоспособности предприятий. Знания, профессиональные навыки, опыт, инновационный потенциал и цифровые компетенции рассматриваются как ключевые факторы, определяющие производительность труда, инновационную активность и рыночные преимущества предприятия. Также обосновывается значимость системного развития человеческого капитала для обеспечения устойчивой конкурентоспособности предприятий в современных экономических условиях.

Ключевые слова: человеческий капитал, конкурентоспособность, производительность труда, компетенции, инновации, цифровые навыки, развитие предприятия.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash tobora ko'proq moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish bilan bir qatorda, inson kapitalining sifatiga ham bog'liq bo'lib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, sun'iy intellekt



va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvning kengayishi korxonalarda yangi bilim va kompetensiyalarga ega bo'lgan xodimlarga bo'lgan talabni oshirmoqda. Shu sababli zamonaviy korxona uchun xodim nafaqat mehnat resursi, balki yangi qiymat yaratish, innovatsiyalarni joriy etish hamda bozor o'zgarishlariga samarali moslashishni ta'minlovchi strategik aktiv sifatida namoyon bo'lmoqda.

Inson kapitalining iqtisodiy mazmuni xodimlarning bilimlari, kasbiy ko'nikmalari, tajribasi, ijodkorligi, innovatsion salohiyati va raqamli kompetensiyalarini korxona faoliyatining amaliy natijalariga aylantirish imkoniyati bilan belgilanadi. Ayniqsa, raqobat muhitining jadal rivojlanishi sharoitida texnologiyalarni xarid qilish yoki moliyaviy resurslar hajmini oshirishning o'zi uzoq muddatli ustunlikni to'liq ta'minlamaydi. Mazkur resurslardan samarali foydalanish, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish hamda boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish uchun malakali va salohiyatli inson kapitali muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, inson kapitalini izchil rivojlantirish mehnat unumdorligini oshirish, innovatsion faollikni kuchaytirish va korxonaning bozordagi mavqeini mustahkamlashning muhim omillaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekistonda ham iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirish jarayonida malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmon'da "O'zbekiston-2030" strategiyasini global o'zgarishlar, texnologik rivojlanish va yangi iqtisodiy chaqiriqlarga mos ravishda takomillashtirish zarurati qayd etilgan.

Shundan kelib chiqib, korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda inson kapitalining amaliy ta'sirini aniqlash, uning asosiy tarkibiy qismlarini baholash hamda bilim, kasbiy kompetensiya, innovatsion salohiyat va raqamli ko'nikmalarning korxona faoliyati natijalariga ta'sir mexanizmlarini o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi inson kapitalining korxonalar raqobatbardoshligini shakllantirishdagi rolini nazariy va amaliy jihatdan asoslash, uning asosiy komponentlarini aniqlash hamda inson kapitalidan samarali foydalanish orqali korxonalarda mehnat unumdorligi, innovatsion faollik va bozor ustunligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inson kapitali nazariyasining shakllanishida T. Schultz va G. Beckerning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. T. Schultz insonning bilim, ta'lim va malakasiga yo'naltiriladigan investitsiyalarni mehnat unumdorligini oshiruvchi muhim iqtisodiy omil sifatida baholagan bo'lsa, G. Becker inson kapitalini ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va tajriba orqali shakllanadigan hamda kelgusida iqtisodiy samara keltiruvchi kapital turi sifatida asoslab bergan. R. Lucas esa inson kapitalining jamlanishini uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning muhim ichki omillaridan biri sifatida ko'rib, uning nafaqat individual, balki umumiy ishlab chiqarish samaradorligiga ham ta'sirini ko'rsatgan.

Korxona darajasida inson kapitalining raqobatbardoshlikka ta'sirini izohlashda J. Barney tomonidan ilgari surilgan Resource-Based View (RBV) yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Mazkur yondashuvga ko'ra, noyob bilim, tajriba, kompetensiya va kreativ salohiyatga ega inson resurslari korxonaning barqaror raqobat ustunligini shakllantiruvchi strategik aktiv sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida ushbu yondashuvning ahamiyati yanada ortib, xodimlarning raqamli savodxonligi, ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalari, sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish hamda innovatsion fikrlash qobiliyatlari korxona samaradorligini belgilovchi muhim omillarga aylanmoqda.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning katta qismida inson kapitali ta'lim, malaka yoki mehnat unumdorligi kabi alohida yo'nalishlar doirasida o'rganilgan. Inson kapitalining bilim, kasbiy kompetensiya, innovatsion salohiyat va raqamli ko'nikmalar kabi tarkibiy qismlarini yagona tizim asosida ko'rib chiqish hamda ularning korxona raqobatbardoshligiga kompleks ta'sirini baholash masalasi qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot inson kapitalining zamonaviy tarkibiy qismlarini korxona raqobatbardoshligi bilan o'zaro bog'lash va ularning ta'sir mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda inson kapitalining korxonalar raqobatbardoshligiga ta'sirini aniqlash maqsadida tizimli, qiyosiy va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Inson kapitali bilim, kasbiy ko'nikmalar, tajriba, innovatsion salohiyat va raqamli kompetensiyalar asosida baholandi. Korxona raqobatbardoshligi esa mehnat unumdorligi, innovatsion faollik, mahsulot va xizmatlar sifati hamda bozor ustunligi kabi ko'rsatkichlar orqali tahlil qilindi. Shuningdek, mavjud ilmiy tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar asosida inson kapitali bilan korxona faoliyati natijalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanib, tegishli ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqildi.

1 <https://lex.uz/pdf/8050769>



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda inson kapitalining iqtisodiy salohiyatini baholashda mehnat bozoridagi o'zgarishlar muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda bandlik darajasi 2020-yildagi 66,0 foizdan 2025-yilda 70,5 foizgacha oshgan. Mazkur davrda bandlik darajasining 4,5 foiz punktga ko'tarilishi mehnat resurslaridan foydalanish imkoniyatlari izchil kengayib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2024-yildagi 68,3 foizlik ko'rsatkichning 2025-yilda 70,5 foizgacha oshishi mehnat bozoridagi faollikning yanada kuchayganini anglatadi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekistonda bandlik darajasining dinamikasi

Yil	Bandlik darajasi, %	O'zgarish, foiz punkt
2020	66,0	—
2021	67,0	+1,0
2022	67,2	+0,2
2023	67,9	+0,7
2024	68,3	+0,4
2025	70,5	+2,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi <https://siat.stat.uz/data/1311/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mazkur dinamikani faqat bandlikning miqdoriy o'sishi sifatida baholash yetarli emas. Korxonalar raqobatbardoshligi nuqtayi nazaridan asosiy masala band aholining bilim va kompetensiyalari asosida qanchalik yuqori iqtisodiy qiymat yaratilayotgani bilan belgilanadi. Xususan, 2025-yilda O'zbekistonda ishlab chiqarish sanoatida band bo'lganlar soni 1 699,6 ming kishiga yetgan. Bu ko'rsatkich 2020-yildagi 1 597,7 ming kishiga nisbatan qariyb 6,4 foizga yuqori. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida bandlik 2020-yildagi 3 499,2 ming kishidan 2025-yilda 3 132,6 ming kishigacha qisqargan. Mazkur tarkibiy o'zgarish iqtisodiyotda mehnat resurslarining yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatiga ega bo'lgan faoliyat turlariga bosqichma-bosqich qayta yo'naltirilayotganini ko'rsatadi.

Inson kapitalining korxona raqobatbardoshligiga ta'sirini baholashda innovatsion faoliyat alohida ahamiyatga ega. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda innovatsiyalarni joriy etgan korxona va tashkilotlar soni 2020-yildagi 1 217 tadan 2023-yilda 5 026 taga oshgan, 2024-yilda esa 1 835 tani tashkil etgan. Shu bilan birga, innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar qiymati 2020-yildagi 31 142,8 mlrd so'mdan 2024-yilda 63 604,4 mlrd so'mgacha oshgan. Bu qariyb 2,04 baravar o'sishni anglatadi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekistonda innovatsion faoliyatning ayrim ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2020	2023	2024
Innovatsiya joriy qilgan korxona va tashkilotlar, birlik	1 217	5 026	1 835
Innovatsion mahsulot, ish va xizmatlar hajmi, mlrd so'm	31 142,8	55 746,5	63 604,4
Joriy etilgan innovatsiyalar, birlik	4 290	8 294	5 521

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi <https://siat.stat.uz/data/3183/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ushbu natijalar inson kapitali va innovatsion rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni alohida ko'rib chiqishni talab etadi. Chunki innovatsiyalarni joriy etish faqat texnologik vositalarni xarid qilish bilan cheklanmaydi; ularni ishlab chiqish, moslashtirish va samarali qo'llash uchun tegishli bilim va kompetensiyalarga ega malakali xodimlar zarur. Shu nuqtayi nazardan, 2024-yilda innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmining 63,6 trln so'mga yetishi korxonalarda yangi bilim va texnologiyalarni iqtisodiy qiymatga aylantirish salohiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar sonining 2023-yildagi 5 026 tadan 2024-yilda 1 835 tani tashkil etgani inson kapitalining sifat jihatlarini, innovatsion kompetensiyalar hamda ularni korxona darajasida samarali boshqarish mexanizmlarini yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, texnologik muhitning kengayishi inson kapitaliga bo'lgan talabning izchil ortishiga xizmat qilmoqda. Xususan, texnopark rezidentlari korxonalarida yaratilgan yangi ish o'rinlari soni 2022-yildagi 9 082 tadan 2024-yilda 19 874 taga, 2025-yil yakunida esa 24 122 taga yetgan. Mazkur ko'rsatkich 2022–2025-yillar davomida qariyb 2,7 baravar oshib, texnologik va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarda malakali inson resurslariga bo'lgan talab jadal ortib borayotganini ko'rsatadi.



Korxonaning barqaror raqobat ustunligi xodimlarning mavjud bilim va tajribasini innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar va iqtisodiy natijalarga aylantirish qobiliyati bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, inson kapitalining korxona raqobatbardoshligiga ta'sirini baholashda bilim, kasbiy kompetensiya, innovatsion salohiyat va raqamli ko'nikmalarni o'zaro bog'liq holda kompleks hisobga olish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inson kapitali zamonaviy korxonalarning raqobatbardoshligini shakllantiruvchi muhim strategik omillardan biridir. Xodimlarning bilim va kasbiy kompetensiyalari, amaliy tajribasi, innovatsion salohiyati hamda raqamli ko'nikmalari mehnat unumdorligi, texnologiyalardan foydalanish samaradorligi, shuningdek, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish imkoniyatlarini bevosita belgilaydi. Shu sababli korxonalarning uzoq muddatli raqobat ustunligini ta'minlashda inson kapitaliga yo'naltiriladigan mablag'larni xarajat sifatida emas, balki yuqori iqtisodiy samara keltiruvchi strategik investitsiya sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Tahlil natijalari asosida inson kapitalining korxona raqobatbardoshligiga ta'siri "bilim va kompetensiya – raqamli ko'nikmalar – innovatsion salohiyat – mehnat unumdorligi – bozor ustunligi" ketma-ketligi orqali namoyon bo'lishi aniqlandi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya sharoitida an'anaviy kasbiy bilimlarni zamonaviy raqamli kompetensiyalar bilan uyg'unlashtirish, xodimlarning ma'lumotlar bilan ishlash, raqamli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shundan kelib chiqib, korxonalarda xodimlarning raqamli va kasbiy kompetensiyalarini muntazam baholab borish, qisqa muddatli malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish, innovatsion g'oyalarni rag'batlantirish hamda inson kapitalini rivojlantirish jarayonlarini korxonaning strategik rejalashtirish tizimiga integratsiya qilish taklif etiladi. Shuningdek, inson kapitali samaradorligini baholashda faqat xodimlar soni bilan cheklanmasdan, mehnat unumdorligi, innovatsion faollik, raqamli kompetensiyalar va yaratilgan qo'shilgan qiymat kabi ko'rsatkichlardan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, korxonalarning raqobatbardoshligi texnologik va moliyaviy resurslar bilan bir qatorda, ushbu resurslarni samarali iqtisodiy natijalarga aylantira oladigan malakali, innovatsion salohiyatga va raqamli kompetensiyalarga ega inson kapitaliga ham bevosita bog'liq. Shu bois inson kapitalini tizimli va izchil rivojlantirish korxonalarning nafaqat joriy faoliyat samaradorligini oshirish, balki uzoq muddatli strategik barqarorligi va bozordagi raqobat ustunligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmoni. "O'zbekiston – 2030" strategiyasini yangi bosqichda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. — Toshkent, 2026. LexUZ — PF–21-son Farmon
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi PF–158-son Farmoni. "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida". — Toshkent, 2024. PF–158-son Farmon
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi PQ–316-son Qarori. "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". — Toshkent, 2025. LexUZ — PQ–316-son Qaror
4. Becker G.S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. 3rd ed. — Chicago: University of Chicago Press, 1993. — 412 p.
5. Schultz T.W. *Investment in Human Capital: The Role of Education and of Research*. — New York: Free Press, 1971. — 272 p.
6. Barney J.B. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage // *Journal of Management*. — 1991. — Vol. 17, No. 1. — P. 99–120. — DOI: 10.1177/014920639101700108.
7. Lucas R.E. Jr. On the Mechanics of Economic Development // *Journal of Monetary Economics*. — 1988. — Vol. 22, No. 1. — P. 3–42. — DOI: 10.1016/0304-3932(88)90168-7.
8. Schultz T.W. Investment in Human Capital // *The American Economic Review*. — 1961. — Vol. 51, No. 1. — P. 1–17.
9. OECD. *Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan*. — Paris: OECD Publishing, 2023. — 77 p. — DOI: 10.1787/6c54f447-en.
10. World Bank. *Uzbekistan Human Capital Country Brief*. — Washington, D.C.: World Bank Group, 2026. — 2026.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>